



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 yanvar holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **6,4 foizga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarninig ulushi **1,1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar **1.5 barobarga ko'proq**


2017 yil yakuni bo'yicha Respublikada 41,0 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,2 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 foizga kamaygan hamda ularning soni 26,5 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 6,4 foiz (17,1 ming birlik) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 285,5 mingtani tashkil etgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (21,5 foiz), Toshkent (9,4 foiz), Farg'ona (9,0 foiz) va Andijon (8,6 foiz) viloyatlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Korxonalar va tashkilotlar

### Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyat sizlarning ulushi, foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,1 f.p), savdoda (-0,9 f.p), axborot va aloqada hamda boshqa turlarda (-0,1 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,0 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,6 f.p.), qurulishda (+0,3 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda(+0,2 f.p.), shuningdek tashish va saqlashda (+0,1 f.p) faoliyat turlarida ulushining o'sishiga olib keldi.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,1 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,9 foizni tashkil etganligini korsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1,1 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,1 foiz savdoda, 17,2 foiz sanoatda, 8,5 foiz qurulishda, 7,4 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,0 foiz yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,2 foiz tashish va saqlash, 2,2 foiz axborot va aloqa, 2,0 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,4 foiz boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) foizda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 yanvar holatiga Respublikamizda jami 5517 ta Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 3087 tasi qo'shma korxonalar, 2430 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning ulushi, foizda**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni va ulushi**

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Toshkent shahar 3624 ta (65,7 foizi), Toshkent viloyati 583 ta (10,6 foiz) va Samarqand viloyatlari 280 ta (5,1 foiz) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xorazm viloyati 51 ta (0,9 foiz), Qashqadaryo viloyati 54 ta (1,0 foiz), Surxondaryo viloyati 57 ta (1,0 foiz) va Navoiy viloyati 60 ta (1,1 foiz) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

	Soni	Ulushi, %
O'zbekiston Respublikasi	5517	100,0
Qoraqalpogiston Respublikasi	76	1,4
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	172	3,1
Buxoro	91	1,6
Jizzah	82	1,5
Qashqadaryo	54	1,0
Navoiy	60	1,1
Namangan	103	1,9
Samarqand	280	5,1
Surxondaryo	57	1,0
Sirdaryo	85	1,5
Toshkent	583	10,6
Farg'ona	199	3,6
Xorazm	51	0,9
Toshkent sh.	3624	65,7


## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha Respublikada jami 863 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo'lib, shulardan asosiy qismi Toshkent shahrida 535 ta, Toshkent viloyatida 88 ta va Samarqand viloyatida 56 ta tashkil etilgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar eng kam tashkil etgan viloyatlar qatoriga Navoiy viloyati (3 ta), Qashqadaryo viloyati (6 ta) hamda Surxondaryo viloyatini (9 ta) kiritish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni hududlar kesimidagi soni, birlikda

O'zbekiston Respublikasi	Qoraqalpogiston Respublikasi	Andijon viloyati	Buxoro viloyati	Jizzah viloyati	Qashqadaryo viloyati	Navoiy viloyati	Namangan viloyati
863	14	34	18	13	6	3	17
Samarqand viloyati	Surxondaryo viloyati	Sirdaryo viloyati	Toshkent viloyati	Farg'ona viloyati	Xorazm viloyati	Toshkent shahri	
56	9	15	88	45	10	535	

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 2438 ta (44,2 foizni), savdoda 1055 ta (19,1 foizni), boshqa turlarida esa 993 ta (18,0 foizni) tashkil qilgan, eng kamlari esa Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 74 ta (1,3 foizni), Axborot va aloqada 126 ta (2,3 foizni), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 159 ta (2,9 foizni), Tashish va saqlashda 161 ta (2,9 foizni), Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 220 ta (4,0 foizni) va Qurilishda 291 ta (5,3 foizni) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda Axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, demak asosan sanoatda 414 ta, savdoda 136 ta, qurilishda 68 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 51 ta va boshqa faoliyat turlarida 194 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hamkor davlatlar ishtirokidagi ulushi


O'zbekiston Respublikasida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi 5517 ta korxonalarning 70,8 foizi (3905 ta) uzoq xorijiy davlatlar hissasiga, 29,2 foizi (1612 ta) esa Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (keying o'rinlarda MDH davlatlari) davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Jumladan, MDH davlatlari ichida Rossiya Federatsiya kapitali ishtirokida faoliyat yuritayotgan xorijiy korxonalar 1035 tani, Qozog'iston Respublikasi 281 tani, Ozarbayjon Respublikasi 91 tani, Ukraina 58 tani, Qirg'iziston Respublikasi 57 tani va qolgan davlatlar 90 tani tashkil etadi.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining MDH davlatlari kesimidagi soni, birlikda



Uzoq davlatlar kapitali ishtirokidagi 3905 ta xorijiy korxonalarining 812 tasi Xitoy Xalq Respublikasi, 510 tasi Janubiy Koreya Respublikasi, 508 tasi Turkiya Respublikasi, 503 tasi Buyuk Britaniya, 189 tasi AQSH, 129 tasi Eron Islom Respublikasi, 125 tasi Hindiston Respublikasi, 123 tasi Germaniya Federativ Respublikasi, 112 tasi Afg'oniston Islom Respublikasi va 894 tasi boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining uzoq davlatlar kesimidagi soni, birlikda



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 yanvar holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 229,6 ming ortiqni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 9,1 foizga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi yani 52314 tasi (22,8 foizi) Toshkent shahriga, 21647 tasi (9,4 foizi) Toshkent, 20342 tasi (8,9 foizi) Andijon hamda 20225 tasi (8,8 foizi) Farg'ona viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar kesimidagi ulushi, foizda



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2017 yil yakuni bilan 38,1 mingdan ortiq Kichik tadbirkorlik sub'ektlari yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilga qaraganda 22,0 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'ektlari Toshkent shahrida (9526 ta), Toshkent (3894 ta), Farg'ona (3292 ta) va Samarqand viloyatlarida (3259 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (1189 ta), Navoiy (1228 ta) hamda Xorazm (1565 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar kesimidagi soni, ming birlikda






## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


Faoliyat yuritayotgan 229,6 mingdan ortiq kichik tadbirkorlik sub'ektlarini toifalarga bo'lganda kichik korxonalar 8,2 foizni (18,9 mingtani), mikrofirmalar esa 91,8 foizni (210,7 mingtani) tashkil qilgan.

### Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, foizda

#### Mikrofirmalar, %




#### Kichik korxonalar, %



## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 yanvar holatiga 12184 tani tashkil etib, ulardan 11679 tasi yoki 95,9 foizi faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni **39,9** foizga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



## Oilaviy korxonalar soni

Jami 11679 ta faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi yani, 2146 tasi (18,4 foizi) Farg'ona, 1912 tasi (16,4 foizi) Toshkent shahriga, 1549 tasi (13,3 foizi) Samarqand hamda 1313 tasi (11,2 foizi) Toshkent viloyatlari hissalariga tog'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar 61 tasi (0,5 foizi) Sirdaryo, 250 tasi (2,1 foizi) Namangan, 337 tasi (2,9 foizi) Jizzah hamda 467 tasi (4,0 foizi) Andijon viloyatlariga to'g'ri keladi. Bu esa ushbu hududlarda oilaviy korxonalar bilan ishlash yahshi yo'lga qoyilmaganligini ko'rsatib turibdi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi ulushi, foizda



## Oilaviy korxonalar soni

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 38,6 foizi yoki 4512 tasi sanoat, 20,2 foizi yoki 2354 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,4 foizi yoki 1803 tasi savdo, 12,0 foizi yoki 1401 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 foizi yoki 149 tasi axborot va aloqa, 1,2 foizi yoki 143 tasi qurilish, 1,1 foizi yoki 133 tasi tashish va saqlash hamda 9,3 foizi yoki 1085 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda**



## Oilaviy korxonalar soni

2017 yilda 3964 ta Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, demak asosan sanoatda 1640 ta, yashash va ovqatlanish xizmatlarida 884 ta, savdoda 560 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 467 ta va boshqa faoliyat turlarida 413 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Davlat statistika qo'mitasi  
Statistik registrarni yuritish va tizimli xizmat  
ko'rsatish boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

S.Begmatov  
(0371) 230-80-91

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR)  
ma'lumotlari asosida tayyorlangan